O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI

SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI

Mavzu:Tekislikda funksiyani tiklash masalasi

5A130101 «Matematika» mutaxassisligi

Matematika bo'yicha magistr akademik darajasini olish uchun

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: dots. Z.H.Ochilov

Magistrant: Ashurova Umida

Samarqand – 2014

Mundarija

KIRISH

Masalaning qo'yilishi. Siniq chiziq va parabolalar oilasi bo'yicha integrallar ma'lum bo'lsa, shu integrallar bo'yicha funksiyani tiklash masalasi qo'yilgan.

Mavzuning dolzarbligi. Integral geometriya masalasi –keng rivojlanayotgan sohalardan biridir. U matematik fizika va analizning nokorrekt masalalari nazariyasining eng yirik yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Uning masalalari ko'p sonli tadqiqotlarga bog'liq. Misol sifatida seysmik kuzatish, ma'lumotlarini interpretasiyalash masalalari, elektrik kuzatishlar, akustika va kompyuter tomografiya masalalarini ko'rsatishimiz mumkin.

Bu soha 1966 yildan yanada rivojlandi va ko'pchilik olimlar qiziqdilar.

M.M. Lavrent'ev va V.G. Romanovlar tomonidan bir qator giperbolik tenglamalar uchun teskari masalalar integral geometriya masalalaridan kelib chiqishini ko'rsatilgan.

Integral geometriya masalasining markaziy muammolaridan biri bu qandaydir ko'pxilliklarda aniqlangan funksiyani uning qandaydir kichik o'lchamdagi ko'pxilliklar oilasi bo'yicha integrali orqali topish masalasidir. Bu magistrlik dissertatsiasida ikki o'lchamli integral geometriya masalalari qaralgan.

Ishning maqsad va vazifalari. Magistrlik dissertatsiyasining maqsadi agar siniq chiziq va parabolalar oilasi bo'yicha integrallar ma'lum bo'lsa, funksiyani tiklash hisoblanadi.

Bu ishda siniq chiziq va parabolalar oilasi bo'yicha integral geometriya masalasi uchun yagonalik va mavjudlik teoremasi isbotlanadi.Turg'unlik bahosi va teskarilanish formulasi olinadi.

Ilmiy tadqiqot usullari. Integral geometriya masalasining yagonalik va mavjudlik teoremasi isbotlashda,turg'unlik va teskarilanish bahosi olishda analiz va matematik fizikaning usullaridan foydalaniladi.

Ishning ilmiy ahamiyati. Magistrlik dissertatsiyasida yuqori yarim tekislikda berilgan siniq chiziq va parabolalar oilasi uchun integral geometriya masalasining yangi qo'yilishi o'rganilgan. Qo'yilgan masala uchun yagonalik va mavjudlik teoremasi isbotlangan. Teskarilanish formulasi va turg'unlik bahosi olingan. Shuni inobatga olib ish nazariy xarakterga ega ekanligini aytish mumkin.

Ishning amaliy ahamiyati. Ishda ko'rilgan masalalarga ekvivalent bo'lgan masalalarning yechimini topishda olingan natijalardan foydalanish mumkin.

Ishning tuzilishi. Magistrlik dissertatsiyasi kirish qismi, uchta bob, 10 ta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlardan iborat.

Kirish qismida masalaning qo'yilishi, dolzarbligi va olingan natijalar to'g'risida so'z yuritiladi.

Birinchi bob beshta paragrafdan iborat.

Birinchi paragrafda tekislikda integral geometriya masalasining umumiy ko'rinishi haqida so'z boradi.

Ikkinchi paragrafda tekislikda qo'zg'alishli integral geometriya masalasi keltirilgan.

Uchinchi paragrafda siniq chiziqlar oilasi bo'yicha integral geometriya masalasi yechimining yagonalik teoremasi isbotlangan,teskarilanish formulasi va turg'unlik bahosi olingan.

To'rtinchi paragrafda siniq chiziqlar oilasi bo'yicha integral geometriya masalasi yechimining mavjudlik teoremasi haqida so'z boradi.

Beshinchi paragrafda esa siniq chiziqlar oilasi bo'yicha qo'zg'alishli integral geometriya masalasi qaralgan.

Ikkinchi bob uchta paragrafdan tashkil topgan.

Birinchi paragrafda parabolalar oilasi bo'yicha integral geometriya masalasi yechimining yagonalik teoremasi isbotlangan.

Ikkinchi paragrafda parabolalar oilasi bo'yicha integral geometriya masalasi yechimining mavjudlik teoremasi va uning isboti keltirilgan.

Uchinchi paragrafda parabolalar oilasi bo'yicha qo'zg'alishli integral geometriya masalasi qaralgan.

Uchinchi bob ikkita paragrafdan tashkil topgan.

Birinchi paragrafda siniq chiziq va parabolalar oilasi bo'yicha integral geometriya masalasining qo'yilishi keltirilgan, yagonalik teoremasi isbotlangan, turg'unlik bahosi va teskarilanish formulasi olingan.

Ikkinchi paragrafda yechimning mavjudligi haqidagi teoremaning isboti keltirilgan.

Olingan natijalarning qisqacha mazmuni.

Bu magistrlik dissertatsiyasining asosiy masalasi yuqori yarim tekislikda siniq chiziq va parabolalar oilasi bo'yicha integrallari ma'lum bo'lib, unda uzluksiz finit funksiyalar sinfida yechimning yagonaligi haqidagi teorema keltirilib, bu teorema isbotlandi. Teskarilanish formulasi va turg'unlik bahosi olinib,yuqorida qo'yilgan masala uchun mavjudlik teoremasi isbotlandi.Olingan natijalar maqola sifatida tayyorlanib, Rossiyaning Novosibirsk shahrida 2013 yil 12-18 aprelda bo'lib o'tgan "Студент и научно-технический прогресс" nomli xalqaro konferensiyaga chop ettirildi, bundan tashqari Namangan shahrida 2013 yil 15-16 aprelda bo'lib o'tgan "Yosh matematiklarning yangi teoremalari" nomli xalqaro konferensiyada va Navoiy shahrida 2014-yil 13-14 iyunda bo'lgan'' 21-asr intellektual avlod asri" nomli konferensiyada chop ettirildi.

I-BOB. SINIQ CHIZIQLAR OILASI BO'YICHA INTEGRAL GEOMETRIYA MASALASI

1.1-§. Tekislikda integral geometriya masalasining umumiy ko'rinishi

(x, y) tekislikda Γ chegarali chegaralangan ochiq D bir bog'lamli sohani qaraymiz. Chegara $x = g(s)$, $y = p(s)$ ko'rinishdagi tenglama bilan berilgan bo'lsin, bu yerda s - Γ dagi tayinlangan nuqtadan Γ dagi yo'nalish bilan muvofiq keluvchi musbat yo'nalishda hisoblanuvchi uzunlik, $g(s)$, $p(s)$ - $C^1[0, l]$ sinf funksiyalari, $g(0) = g(l)$, $p(0) = p(l)$, l - Γ uzunligi D sohada quyidagi xossalarga ega ikki parametrli $L(t_1, t_2)$ egri chiziqlar oilasi berilgan bo'lsin.

1. D sohaning har bir juft nuqtasini oilaning yagona egri chizig'i tutashtiradi,har bir $L(t_1, t_2)$ egri chiziq Γ ni (x_1, y_1), (x_2, y_2) nuqtalarda kesib o'tadi, yani

$$x_1 = g(s_1), \quad x_2 = g(s_2)$$

$$y_1 = p(s_1), \quad y_2 = p(s_2)$$

$L(t_1, t_2)$ egri chiziqning boshqa nuqtalari D ga tegishli; $L(t_1, t_2)$ egri chiziqlar uzunliklari jamlanmasi bilan chegaralangan.

2. (x_0, y_0) nuqtadan $v^0 = (\cos\theta_0, \sin\theta_0)$ yo'nalishda o'tuvchi egri chiziq tenglamasi

$$\begin{aligned} x &= f_1(s, \theta_0, x_0, y_0) = x_0 + s\cos\theta_0 + s^2 \tilde{f}_1(s, \theta_0, x_0, y_0) \\ y &= f_2(s, \theta_0, x_0, y_0) = y_0 + s\sin\theta_0 + s^2 \tilde{f}_2(s, \theta_0, x_0, y_0) \end{aligned} \qquad (1.1.1)$$

tenglamalar bilan beriladi. Bularda $\tilde{f}_j(\cdot)$ (x_0, y_0) -nuqtada hisoblanuvchi s yoyi uzunligi va $\theta_0 \in [0, 2\pi]$ va $(x_0, y_0) \in \overline{D}$ parametrning uzluksiz differensiallanuvchi va hosilalari bilan chegaralangan funksiyalar, $f_j(s,0,x_0,y_0)=f_j(s,2\pi,x_0,y_0)$ va bundan tashqari (s,θ_0,x_0,y_0) o'zgaruvchilarning butun o'zgarish sohasida

$$\frac{1}{2}\frac{D(f_1,f_2)}{D(s,\theta_0)}\geq c_0>0 \qquad (1.1.2)$$

Ta'kidki, nolga yaqin s lar uchun (1.1.2) tengsizlikning bajarilishi ravshanki (1.1.1) dan kelib chiqadi, shuning uchun (1.1.2) tengsizlik chekli s lar uchun muhim. Bu holda u $D(f_1,f_2)/D(s_1,\theta_0)$ yakobianning musbatligiga teng kuchli.

L egri chiziqlar oilasiga nisbatan quyidagi lemma o'rinli.

1.1.1-Lemma. Egri chiziqlar oilasi yuqoridagi shartlarni qanoatlantirsin, bundan tashqari $f_j(\cdot)$ funksiyalar $m>1$ tartibgacha uzluksiz va chegaralangan hosilalarga ega bo'lsin. U holda (1.1.1) tenglik s,v^0 ni (x_0,y_0) nuqtalarning bir qiymatli va m marta uzluksiz differensiallanuvchi funksiyalari sifatida barcha (x_0,y_0), (x,y) lar $(x_0,y_0),\ (x,y)\in\overline{D}$ va $(x_0,y_0)\neq(x,y)$ lar uchun aniqlaydi, $(x,y)=(x_0,y_0)$ to'plam atrofida ular uchun

$$\begin{gathered}\left|D^\alpha s(x_0,y_0,x,y)\right|\leq\frac{c}{\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{(|\alpha|-1)/2}}\\ \left|D^\alpha v^0(x_0,y_0,x,y)\right|\leq\frac{c}{\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{|\alpha|/2}}\end{gathered} \qquad (1.1.3)$$

$|\alpha|\leq m$ baholar o'rinli.

Isbotlash uchun (1.1.1) dan quyidagi tengliklar kelib chiqishini ta'kidlaymiz:

$$s=\frac{\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}}{\left[(\cos\theta_0+s\tilde{f}_1)^2+(\sin\theta_0+s\tilde{f}_2)^2\right]^{1/2}}$$

$$\cos\theta_0=\frac{x-x_0}{\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}}\left[(\cos\theta_0+s\tilde{f}_1)^2+(\sin\theta_0+s\tilde{f}_2)^2\right]^{1/2}+$$

$$+\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}\frac{\tilde{f}_1}{\left[(\cos\theta_0+s\tilde{f}_1)^2+(\sin\theta_0+s\tilde{f}_2)^2\right]^{1/2}}$$

Bundan oshkormas holda berilgan funksiyalar haqidagi teoremani qo'llash bilan yetarlicha kichik $(x-x_0)^2+(y-y_0)^2<\delta^2$ sohada s va v funksiyalar quyidagi tuzilishga ega ekanligini topamiz:

$$s=\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}\left\{1+\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}\varphi(\cdot)\right\},$$

$$\cos\theta=\frac{x-x_0}{\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}}\left\{1+\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}\varphi(\cdot)\right\}+$$

$$+\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}\varphi(\cdot),$$

$$\sin\theta=\frac{y-y_0}{\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}}\left\{1+\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}\varphi(\cdot)\right\}+$$

$$+\left[(x-x_0)^2+(y-y_0)^2\right]^{1/2}\psi(\cdot),$$

$$\varphi=\varphi(x_0,y_0,x,y),\quad \psi=\psi(x_0,y_0,x,y)$$

Bu yerda φ,ψ –o'z argumentlarining m marta uluksiz differensiallanuvchi funksiyalari. Bundan, xususan (1.1.3) baholar kelib chiqadi.

$(x-x_0)^2+(y-y_0)^2>\delta^2$ uchun $s>\delta$ tengsizlikning demak, $D(f_1,f_2)/D(s,\theta_0)\geq c_0\delta>0$ tengsizlikning bajarilishi ravshan. Lekin bu holda lemma bilan postulatlanuvchi s,v^0 funksiyalar silliqligi $\tilde{f}(\cdot)$ funksiyaning silliqligidan kelib chiqadi, ularning mavjudligi va bir qiymatliligi egri chiziqlar oilasiga qo'yilgan (1.1.1) shartdan kelib chiqadi.

$L(x,y,x_0,y_0)$ $(x,y),(x_0,y_0)$ nuqtalar orqali o'tuvchi va ular orasida yotuvchi oilaning egri chiziqlar kesmasini va $v=(\cos\theta,\sin\theta)$ orqali (x,y)-nuqtada $L(x,y,x_0,y_0)$ egri chiziqqa o'tkazilgan urinma birlik vektorini belgilaymiz. v vektorni $(x,y),(x_0,y_0)$ nuqtalarning v^0 vektor kabi silliqlik xossalariga ega funksiya sifatida qarash mumkin. Haqiqatdan, agar $v^0 = h(x, y, x_0, y_0)$ bo'lsa, u holda $(x, y), (x_0, y_0)$ nuqtalar teng kuchliligidan ravshanki $v = -h(x_0, y_0, x, y)$.

1.1.2-Lemma.

$$\frac{\partial}{\partial s_1}\theta(g(s_1), p(s_1), x, y) \geq 0, \quad (x, y) \in D, \quad s_1 \in [0, l] \tag{1.1.4}$$

tengsizlik o'rinli.

Isbotlash uchun ta'kidlaymizki, tayinlangan $(x, y) \in D$ da qaralayotgan $\theta(x_0, y_0, x, y)$ funksiya o'zining chiziqlari sifatida (x_0, y_0) funksiyasi sifatida (x, y) nuqtadan o'tuvchi (x, y) va Γ chegara orasida joylashgan L oilaning egri chiziqlari kesmalarni oladi. Demak, $grad\ \theta(x_0, y_0, x, y)$, $L(x_0, y_0, x, y)$ egri chiziqqa (x_0, y_0) nuqtadagi normal bo'yicha θ ning o'sishi tomonga yo'nalgan. L chiziqlar tayinlangan (x, y) da bir-biri bilan faqat (x, y) nuqtada kesishadi, u holda $(x, y) \in D$ nuqtani o'z ichiga oladigan ixtiyoriy yopiq egri chiziqda, xususan Γ da, musbat yo'nalishiga θ ning oshishi mos keladi. $x_0 = g(s_1)$, $y_0 = p(s_1)$ deb faraz qilib, s_1 larga $\theta(g(s_1), p(s_1), x, y)$ katta qiymatlar mos kelishini olamiz. Bundan (1.1.4) tengsizlik kelib chiqadi.

Endi $u(x, y) \in C^1(\overline{D})$ va $\rho(x_0, y_0, x, y) \in C^1(\overline{D} \times \overline{D})$ funksiyalar uchun

$$w(x_0, y_0, x, y) = \int\limits_{L(x_0, y_0, x, y)} p(x_0, y_0, x_1, y_1) u(x_1, y_1) ds \tag{1.1.5}$$

formula bilan aniqlangan $w(x_0, y_0, x, y)$ formulani qaraymiz va quyidagi masalani qo'yamiz: $\overline{D}$ da berilgan $\rho(x_0, y_0, x, y)$ va $\upsilon(t_1, t_2)$ funksiyalarda $u(x, y)$ ni toping.

$$\upsilon(t_1, t_2) = w(g(t_1), p(t_1), g(t_2), p(t_2)), \qquad t_1, t_2 \in [0, l] \tag{1.1.6}$$

1.1.3-Teorema. Agar egri chiziqlar oilasi 1-2 xossalarga ega bo'lsa, $\rho(x_0, y_0, x, y) \in C^1(\overline{D} \times \overline{D})$ vazn funksiya

$$\rho(x_0, y_0, x, y) \geq \rho_0 > 0 \tag{1.1.7}$$

$$\left|\frac{\partial}{\partial t_1}\ln \rho(g(t_1), p(t_1), x, y)\right| \le q\frac{\partial}{\partial t_1}\theta(g(t_1), p(t_1), x, y) \qquad (1.1.8)$$

$$0 \le q < 1$$

shartlarni qanoatlantirsa, u holda qo'yilgan masalaning yechimi $u \in C^1(\overline{D})$ uchun yagona va uning uchun

$$\|u\|_{L_2(D)} \le \frac{1}{\rho_0\sqrt{1-q^2}}\frac{1}{2\sqrt{\pi}}\|grad_{t_1,t_2} v(t_1,t_2)\|_{L_2(Q)} \qquad (1.1.9)$$

turg'unlik bahosi o'rinli.

Dastlab (1.1.1) ga kiruvchi $u(\cdot), \rho(\cdot)$ va $\tilde{f}(\cdot)$ funksiyalar silliqligi teorema shartlarida bayon qilinganiga qaraganda bir birlik yuqori bo'lgan hol uchun (1.1.9) bahoning o'rinliligini isbotlaymiz. Bu holda $w(\cdot)$ funksiya uchun quyidagi lemma o'rinli.

1.1.4-Lemma. $\tilde{f}, \rho, u$ funksiyalar o'z argumentlari bo'yicha ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi va o'z xususiy hosilalari bilan birgalikda chegaralangan. U holda $w(x_0, y_0, x, y)$ funksiya (x_0, y_0, x, y) bo'yicha atrofida

$$\left|D^\alpha w(\cdot)\right| \le c\left[(x-x_0)^2 + (y-y_0)^2\right]^{\frac{1-|\alpha|}{2}}, \qquad |\alpha| \le 2 \qquad (1.1.10)$$

baho o'rinli bo'lgan $(x_0, y_0) = (x, y)$ nuqtalardan tashqari barcha joyda ikki marta uzluksiz differensiallanuvchi bo'ladi.

Lemmaning o'rinliligi

$$w(x_0, y_0, x, y) = \int_0^{S(x_0, y_0, x, y)} \rho\left[x_0, y_0, f_1(s, \theta_0(x_0, y_0, x, y), x_0, y_0) f_2(\cdot)\right] u(f_1, f_2) ds$$

ifodadan va 1.1.1.lemmadan kelib chiqadi.

Endi $w(x_0, y_0, x, y)$ funksiya uchun differensial tenglama olamiz. Buning uchun

$$w(x_0, y_0, f_1(s, \theta_0, x_0, y_0), f_2(\cdot)) = \int_0^s \rho\left[x_0, y_0, f_1, f_2\right] u(f_1, f_2) ds_1$$

ekanligini ta'kidlaymiz.

Uni s bo'yicha differensiallab va

$$(f_1(s,\theta_0,x_0,y_0),\ f_2(\cdot)) = (x,y)\,,\ \left(f_{1S}(\cdot),\ f_{2S}(\cdot)\right) = v(x_0,y_0,x,y)$$

dan foydalanib

$$(\underset{(x,y)}{grad}\ w(x_0,y_0,x,y), v(x_0,y_0,x,y)) = \rho(x_0,y_0,x,y)u(x,y) \qquad (1.1.11)$$

ni topamiz.

Bu tenglikning ikkala tomonini $\rho(x_0,y_0,x,y)$ ga bo'lib, $x_0 = g(t_1)$, $y_0 = p(t_1)$ deb faraz qilib va t_1 bo'yicha topilgan tenglikni differensiallab

$$w(g(t_1),\ p(t_1),\ x,y) = \tilde{w}(t,x,y)$$

funksiya uchun

$$\frac{\partial}{\partial t_1}\left\{\frac{1}{\tilde{\rho}(t_1,x,y)}\left(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v}\right)\right\} = 0 \qquad (1.1.12)$$

ni olamiz, unda

$$\tilde{\rho}(\cdot) = \rho(g(t_1),\ p(t_1),\ x,y)\,,\quad \tilde{v}(\cdot) = v(g(t_1),\ p(t_1),\ x,y)$$

(1.1.12) tenglama aralash tipdagi tenglama, ya'ni giperbola-parabola tipdagi tenglamadan iborat. U $[0,l]\times\overline{D}$ silindrik sohada bajariladi. Bu sohaning chegarasida davriylik shartiga

$$\tilde{w}(0,x,y) = \tilde{w}(l,x,y), \qquad (x,y)\in\overline{D} \qquad (1.1.13)$$

va (1.1.6) formuladan kelib chiquvchi

$$\tilde{w}(t_1,g(t_2),\ p(t_2)) = v(t_1,t_2) \qquad (1.1.14)$$

shartga ega bo'lamiz.

Shunday qilib, $\tilde{w}(\cdot)$ funksiya (1.1.12)-(1.1.14) noklassik masalaning yechimidan iborat. (1.1.5), (1.1.6) formulalardan $v(t_1,t_2) = 0$ $\left(t_1\in[0,l]\right)$ kelib chiqadi. Bu shart bajarilganda (1.1.12)-(1.1.14) masala va yuqorida qo'yilgan integral geometriya masalasi teng kuchli. Shuning uchun $\tilde{w}(t_1,x,y)$ ni topish yetarli, keyin esa (1.1.11) formuladan $u(x,y)$ topiladi. (1.1.12)-(1.1.14) masalaning yagonaligi va turg'unligi masalalarni tadqiq qilish uchun energetik baholar usulini qo'llaymiz. $x \neq g(t_1)$, $y \neq p(t_1)$ va $\beta = (-\sin\tilde{\theta}, \cos\tilde{\theta})$, $\tilde{\theta} = \tilde{\theta}(t_1, x, y)$ lar uchun ikkita ravshan ayniyatlarga ega bo'lamiz.

$$\tilde{\rho}\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\frac{\partial}{\partial t_1}\left[\frac{1}{\tilde{\rho}}\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\right] = \left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}_{t_1}\right) +$$

$$+\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}_{t_1}, \tilde{v}\right) - \left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\frac{\partial}{\partial t_1}\ln\tilde{\rho},$$

$$\tilde{\rho}\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\frac{\partial}{\partial t_1}\left[\frac{1}{\tilde{\rho}}\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\right] = \frac{\partial}{\partial t_1}\left[\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\right] -$$

$$-\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta_{t_1}\right) - \left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right) - \left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\frac{\partial}{\partial t_1}\ln\tilde{\rho}$$

Bu ayniyatlarni qo'shib va

$$\tilde{v}_{t_1} = \beta\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}, \qquad \beta_{t_1} = -\tilde{v}\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1},$$

$$\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right) - \left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}_{t_1}, \beta\right) = \frac{\partial}{\partial x}(\tilde{w}_{t_1}, \tilde{w}_y) - \frac{\partial}{\partial y}(\tilde{w}_{t_1}, \tilde{w}_x)$$

ekanligini hisobga olib

$$2\tilde{\rho}\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\frac{\partial}{\partial t_1}\left(\frac{1}{\tilde{\rho}}\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\right) = \left\{\left[\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)^2 + \left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)^2\right]\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1} - 2\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\frac{\partial}{\partial t_1}\ln\tilde{\rho}\right\} +$$

$$+\frac{\partial}{\partial t_1}\left[\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \tilde{v}\right)\left(\nabla_{xy}\tilde{w}, \beta\right)\right] + \frac{\partial}{\partial x}\left(\tilde{w}_{t_1}, \tilde{w}\right) - \frac{\partial}{\partial y}\left(\tilde{w}_{t_1}, \tilde{w}_x\right) \qquad (1.1.15)$$

ni topamiz.

(1.1.12) tenglama yechimlarida bu ayniyatning chap qismi nolga aylanadi. (1.1.15) ayniyatni $\tilde{w}(t_1, x, y)$ -(1.1.12) tenglama yechimi deb faraz qilib $G = [0, l] \times \overline{D}$ sohadan

$$\left\{(t_1, x, y): \ t_1 \in [0, l], \ (x, y) \in \overline{D}, \ (x - g(t_1))^2 + (y - p(t_1))^2 \leq \varepsilon^2\right\}$$

to’plamni tashlab yuborish bilan hosil qilingan G_ε soha bo’yicha yetarlicha kichik ε son uchun integrallaymiz. U holda Gauss-Ostragradskiy formulasidan foydalanib

$$\int_{G_\varepsilon}\left\{\left[(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})^2+(\nabla_{xy}\tilde{w},\beta)^2\right]\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}-2(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})(\nabla_{xy}\tilde{w},\beta)\frac{\partial}{\partial t_1}\ln\tilde{\rho}\right\}dxdydt_1+$$

$$+\int_{S_\varepsilon}\left\{(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})(\nabla_{xy}\tilde{w},\beta)\cos(\widehat{n,t_1})+\tilde{w}_{t_1}\left[\tilde{w}_y\cos(\widehat{n,x})-\tilde{w}_x\cos(\widehat{n,y})\right]\right\}dS=0$$

ni olamiz.Bu yerda S_ε - D_ε to’plam chegarasi, n - S_ε ga tashqi normal, dS - yuza elementi.

Bu tenglikda ε ni nolga intiltirib limitga o’tamiz. Bunda 1.1.3.lemma baholariga ko’ra G_ε va S_ε bo’yicha integrallar xosmas integrallar sifatida mos ravishda G va S bo’yicha integrallarga yaqinlashadi. S sirt bo’yicha integralni ikki qismga ajratish mumkin: G silindrning yuqori va quyi asosi bo’yicha va $[0,l]\times\Gamma$ yon sirti bo’yicha integral. Lekin silindrning quyi va yuqori asoslarida $\cos(\widehat{n,x})=\cos(\widehat{n,y})=0$,$\cos(\widehat{n,t_1})$ mos nuqtalarda qarama-qarshi ishoralarga ega. (1.1.13) davriylik sharti silindrning yuqori va quyi asoslari bo’yicha integrallar yig’indisi nolga aylanishiga olib keladi. Yon sirtda $\cos(\widehat{n,t_1})=0$ va $x=g(t_2)$, $y=p(t_2)$ lar uchun

$$\tilde{w}_{t_1}=v_{t_1}(t_1,t_2)\,,\quad \tilde{w}_y\cos(\widehat{n,x})-\tilde{w}_x\cos(\widehat{n,y})=\frac{\partial}{\partial t_2}\tilde{w}(t_1,g(t_2),p(t_2))=v_{t_2}(t_1,t_2)$$

$$dS=dt_1dt_2.$$

Shunday qilib

$$\int_{G}\left\{\left[(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})^2+(\nabla_{xy}\tilde{w},\beta)^2\right]\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}-2(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})(\nabla_{xy}\tilde{w},\beta)\frac{\partial}{\partial t_1}\ln\tilde{\rho}\right\}dxdydt_2=$$

$$=-\int_0^l\int_0^l v_{t_1}v_{t_2}\,dt_1dt_2 \qquad (1.1.16)$$

ni olamiz.

1.1.2.Lemmaga asosan $2\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}\geq 0$. $\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}=0$ bo’lgan barcha nuqtalarda o’rta qavslardagi ifoda (1.1.8) shart nolga aylanadi. $\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}>0$ bo’lgan nuqtalar uchun

$$\left[(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})^2+(\nabla_{xy}\tilde{w},\beta)^2\right]\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}-2(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})(\nabla_{xy}\tilde{w},\beta)\frac{\partial}{\partial t_1}\ln\tilde{\rho}=(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})^2\times$$

$$\times\left[\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}-\left(\frac{\partial}{\partial t_1}\ln\tilde{\rho}\right)^2\left(\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_2}\right)^{-1}\right]+\left[(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})\frac{\partial}{\partial t_2}\ln\tilde{\rho}\left(\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_2}\right)^{-1/2}-(\nabla_{xy}\tilde{w},\beta)\left(\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_2}\right)^{1/2}\right]\geq$$

$$\geq(\nabla_{xy}\tilde{w},\tilde{v})^2(1-q^2)\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}\geq\rho_0^2(1-q^2)u^2(x,y)\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}.$$

ga ega bo’lamiz.

Shuning uchun (1.1.16) tengsizlikni kuchaytirib

$$\rho_0^2(1-q^2)\int_D u^2(x,y)\,dxdy\cdot\int_0^{2\pi}\frac{\partial\tilde{\theta}}{\partial t_1}dt_1\leq\frac{1}{2}\int_0^l\int_0^l|\nabla v|^2\,dt_1dt_2$$

ni olamiz. Bundan (1.1.9) baho kelib chiqadi.

Teoremaning isbotini yakunlash uchun (1.1.9) tenglik o’ng qismidagi ifoda $u\in C^1(\overline{D})$, $\rho(x_0,y_0,x,y)\in C^1(\Gamma\times\overline{D})$ lar va 1-2 shartni qanoatlantiruvchi L egri chiziqlar oilasi uchun ma’noga ega. Shuning uchun teorema shartlarini qanoatlantiruvchi $u,\rho,\tilde{f}$ funksiyalarni (1.1.9) baho o’rinli bo’lgan $u_n,\rho_n,\tilde{f}_n$ funksiyalar bilan yaqinlashtirib unda $n\to\infty$ da limitga o’tib teorema shartlarida (1.1.9) bahoni olamiz. Bu bahodan xususan, integral geometriya masalasining $C^1(\overline{D})$ fazoda yagonaligi kelib chiqadi.

1.1.3- Teorema isbotlandi.

1.2-§. Tekislikda qo’zg’alishli integral geometriya masalasi

$$\int_0^y[u(x+h,\eta)+u(x-h,\eta)]\frac{d\eta}{\sqrt{y-\eta}}+\int_0^y\int_{x-h}^{x+h}K(x,y,\xi,\eta)u(\xi,\eta)\,d\xi\,d\eta=f(x,y)\quad h=\sqrt{y-\eta}\qquad(1.2.1)$$

$u(\xi,\eta)$. Funksiya ikki marta differensiallanuvchi finit va tashuvchisi $-l_o < \xi < l_o$, $0 < \eta < b$ to'rtburchakda К funksiya 2-tartibli uzluksiz hosilalarga ega hamda quydagi shartni qanoatlantiradi. К(x, y, ξ,η) = 0 agar $|\xi + x| < h$. bo'lsa. f(x, y) funksiya 0 < y < b da berilgan deb faraz qilinadi.

(1) tenglama integral geometriyaning qo'zg'alishli masalasiga to'g'ri keladi.

(1) ning chap tamonidagi birinchi qo'shiluvchi

$$\int_0^y [u(x+h,\eta)+u(x-h,\eta)]\frac{d\eta}{\sqrt{y-\eta}} = f_0(x,y)$$

(x, y) nuqtada parabolalar oilasida berilgan funksiyalardan olingan integrallar to'plamidir .

Ikkinchi qo'shiluvchi.

$$f_1(x,y) = f(x,y) - f_0(x,y)$$

— parabolalar bo'yicha chegaralangan yarim tekisliklar bo'yicha olingan К og'irlikli integraldir .

1.2.1-Teorema. (1) tenglamaning yechimi yagona. Faraz qilaylik (1) ning o'ng tomoni aynan nol:

$$f(x,y) \equiv 0$$

Demak, funksiyani qaraymiz

$$v(x,y,t) = \frac{\partial}{\partial}\int_0^y [u[x+gh,\eta]+u(x-gh,\eta)]\frac{d\eta}{\sqrt{y-\eta}},$$

$$g(t) = \sqrt{1-t},\ t\in[0,1].$$

U quydagi integral differensial tenglamani qanoatlantiradi:

$$\frac{\partial}{\partial y} v(x,y,t) = -\frac{1}{4}\int_0^t \frac{\partial^2}{\partial x^2} v(x,y,\tau)\,d\tau + \varphi(x,y),$$

$$\varphi(x,y) = -\frac{1}{4}\frac{\partial^2}{\partial x^2} f_0(x,y) = \frac{1}{4}\frac{\partial^2}{\partial x^2} f_1(x,y), \tag{1.2.2}$$

Faraz qlaylik v_v(x,y,t) = $e^{\sigma(b-y)^2}$ v(x,y,t). (2) dan v_σ tenglamani qanoatlantirishini topamiz.

$$\frac{\partial}{\partial y} v_0(x,y,t) = -\frac{1}{4}\int_0^t \frac{\partial^2}{\partial x^2} v_0(x,y,\tau)\,d\tau - 2\sigma(b-y)v_\sigma(x,y,t) + \varphi_\sigma(x,y),$$

$$\varphi(x,y) = e^{\sigma(b-y)^2}\varphi(x,y). \tag{1.2.3}$$

1.2.2 - Lemma . Shunday M o'zgarmas mavjudki,

$$\int_0^b \int_{-l}^{l} \varphi_\sigma^2(x,y)\,dx,dy \le M \int_0^b \int_{-l}^{l} \int_0^1 v_\sigma^2(x,y,t)\,dx\,dy\,dt, \tag{1.2.4}$$

bunda $l = l_0 + \sqrt{b}$.

v, f aniqlanishidan K ni xossasi quydagicha kelib chiqadi.

$$2\int_0^y u(x,\eta)\frac{d\eta}{\sqrt{y-\eta}} + f_1(x,y) = \int_0^1 v(x,y,t)\,dt,$$

$$u(x,y) + \int_0^y \int_{x-h}^{x+h} K_1(x,y,\xi,\eta)u(\xi,\eta)\,d\xi\,d\eta = \frac{1}{2\pi}\int_0^y \int_0^1 v'_\eta(x,y,t)\,dt\,\frac{d\eta}{\sqrt{y-\eta}} \tag{1.2.5}$$

$$K_1(x,y,\xi,\eta) = \frac{1}{2\pi}\int_{\eta+(x-\xi)^2}^{y} K'_{y1}(x,y,\xi,\eta)\frac{dy_1}{\sqrt{y-\eta}}$$

(5) ning chap qismi ikkinchi tur voltera operatorining u funksiyaning qo'llanishi oqibatidir. Ko'rsatilgan operatordan foydalanib quydagini hosil qilamiz.

$$u(x,y)=\frac{1}{2\pi}\int_0^y\int_0^1\int_0^1 v'_\eta(x,y,t)\,dt\,\frac{d\eta}{\sqrt{y-\eta}}+\int_0^y\int_{x-h}^{x+h}K_2(x,y,\xi,\eta)v'_\eta(\xi,\eta)\,d\xi\,d\eta \tag{1.2.6}$$

bunda K_2 — uzluksiz funksiya.

(6) dan v funksiya bo'yicha diferensiallash operatorini ko'chirish yordamida quyidagi tenglikka ega bo'lamiz.

$$\varphi(x,y)=\int_0^y\int_{x-h}^{x+h}\int_0^1 K_3(x,y,\xi,\eta)v(\xi,\eta,t)\,dt\,d\xi\,d\eta \tag{1.2.7}$$

bunda K_3 — uzluksiz funksiya.

(7) dan

$$\varphi_0(x,y)=\int_0^y\int_{x-h}^{x+h}\int_0^1 K_{3\sigma}(x,y,\xi,\eta)v(\xi,\eta,t)\,dt\,d\xi\,d\eta$$

$$K_{3\sigma}(x,y,\xi,\eta)=e^{\sigma(b-y)^2}K_3(x,y,\xi,\eta) \tag{1.2.8}$$

(4) tengsizlik (8) dan kelib chiqadi .

(2) va (3) tenglamalarga x bo'yicha Furye almashtirishlarni qo'llasak, tenglama quyidagi ko'rinishda bo'ladi.

$$\frac{\partial}{\partial y}w(\lambda,y,t)=\frac{\lambda^2}{4}\int_0^t w(\lambda,y,t)\,d\tau+\psi(\lambda,y), \tag{1.2.9}$$

$$w(\lambda,y,t)=\frac{1}{\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{\infty}e^{i\lambda x}v(x,y,t)\,dx,$$

$$\psi(\lambda,y)=\frac{1}{\sqrt{2\pi}}\int_{-\infty}^{\infty}e^{i\lambda x}\varphi(x,y)\,dx,$$

$$\frac{\partial}{\partial y} w_\sigma(\lambda, y, t) = \frac{\lambda^2}{4}\int_0^t w_\sigma(\lambda, y, t) d\tau - 2\sigma(b-y) w_\sigma(\lambda, y, t) + \psi_\sigma(\lambda, y)$$

$$w_1(\lambda, t) = \begin{cases} w(\lambda, b, t) & t \le 1 \\ 0 & t > 1 \end{cases} \qquad (1.2.10)$$

belgilashni olamiz.

(9) tenglama uchun Koshi masalasini qaraymiz.

$$w(\lambda, b, t) = w_1(\lambda, t) \qquad (1.2.11)$$

$0 < y < b$, $0 < t < \infty$ yarim palosasida $w(\lambda, y, t)$ $t > 1$ bo'lganda Koshi masalasining yechimi sifatida qaraymiz.

$t < 1$ bo'lganda (9) tenglama uchun (11) Koshi masalasi yuqorida aniqlangan w funksiya bilan mos tushadi. (9) tenglama uchun (11) masalaning yechimi esa quyidagi formula bilan beriladi.

$$w(\lambda, y, t) = \int_0^t \frac{\cos\lambda\sqrt{(t-\tau)(b-y)}}{\sqrt{(t-\tau)}} w_2(\lambda, \tau) d\tau + \frac{1}{\lambda\sqrt{t}}\int_y^b \sin\lambda\sqrt{t(\eta - y)}\psi_1(\lambda, \eta) d\eta \qquad (1.2.12)$$

$$w_2(\lambda, t) = \frac{1}{\pi}\frac{\partial}{\partial t}\int_0^t w_1(\lambda, \tau)\frac{d\tau}{\sqrt{t-\tau}}$$

$$\psi_1(\lambda, t) = \frac{1}{\pi}\frac{\partial}{\partial y}\int_0^t \psi_1(\lambda, \eta)\frac{d\eta}{\sqrt{\eta - y}}$$

Haqiqatdan ham evalyutsion tenglamalar xossalariga ko'ra (9) tenglama uchun (11) masalaning yechimi yagona (12) tenglama esa bu masalaning yechimi bo'ladi . J orqali volterra integral operatorini belgilaymiz.

$$Jw = \int_0^t w(\lambda, y, t) d\tau$$

va quyidagi funksiyani qaraymiz

$$F(w_0)=\int_0^b\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\left(\frac{\partial}{\partial y}-\frac{\lambda^2}{4}J+2\sigma(b-y)\right)w_\sigma(\cdot)\right]^2 dtdy =$$

$$=-\int_0^b\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\left(\frac{\partial}{\partial y}+\frac{\lambda^2}{4}J*+2\sigma(b-y)\right)\times\left(\frac{\partial}{\partial y}-\frac{\lambda^2}{4}J+2\sigma(b-y)\right)w_\sigma(\cdot)w_\sigma(\cdot)\right]dtdy +$$

$$\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\frac{\partial}{\partial y}w_\sigma^2(\lambda,b,t)+\frac{\lambda^2}{4}Jw_\sigma(\lambda,b,t)+2\sigma bw_\sigma^2(\lambda,b,t)\right]dt,$$

Bunda $J^* - 0<t<00$ aniqlangan funksiyalar gilbert fazosida J operatorning qo'shmasi $(g,h)=\int_0^\infty e^{\sigma t}g(t)h(t)dt$

(10) dan 5.6 bo'limdagi lemmalardan

$$F(w_0)=-\int_0^b\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\left(\frac{\partial}{\partial y}+\frac{\lambda^2}{4}J*+2\sigma(b-y)\right)\times\left(\frac{\partial}{\partial y}-\frac{\lambda^2}{4}J+2\sigma(b-y)\right)w_\sigma(\cdot)w_\sigma(\cdot)\right]dtdy+$$
$$\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\frac{\partial}{\partial y}w_\sigma^2(\lambda,b,t)+\frac{\lambda^2}{4}Jw_\sigma(\lambda,b,t)+2\sigma bw_\sigma^2(\lambda,b,t)\right]dt+$$
$$+\int_0^b\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\left(2\sigma+\frac{\lambda^2}{16}(J*J-JJ*)\right)w_\sigma(\cdot)\right]dtdy=\int_0^b\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\left(\frac{\partial}{\partial y}-\frac{\lambda^2}{4}J*+2\sigma(b-y)\right)w_\sigma(\cdot)\right]^2dtdy-$$
$$-\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\frac{\lambda^2}{4}(J+J^*)w_\sigma(\cdot)w_\sigma(\cdot)\right]dt+\int_0^b\int_0^\infty e^{-\sigma t}\left[\left(2\sigma+\frac{\lambda^2}{16}(J*J-JJ*)\right)w_\sigma(\cdot)\right]w_\sigma(\cdot)dtdy=$$
$$\frac{1}{\sigma}\int_0^b\psi_\sigma^2(\lambda,y)dy. \qquad (1.2.13)$$

kelib chiqadi.

1.2.3 - Lemma . Faraz qilaylik g(t) —funksiya $0<t<\infty$ yarim to'g'ri chiziqda uzluksiz va chegaralangan $|g(t)|<g_o$. U holda quyidagi teglik o'rinli.

$$(J*J-JJ*)g=\frac{1}{\sigma}\int_0^\infty e^{-\sigma(t+\sigma)}g(\tau)dr, \qquad (1.2.14)$$

bunda J* quyidagicha aniqlanadi

$$J*g=e^{-\sigma t}\int_0^\infty e^{-\sigma t}g(\tau)dr.$$

J^* ning aniqlanishidan

$$J^* Jg = \int_0^\infty G(t,\tau) g(\tau) dr .$$

$$G(t,\tau) = \begin{cases} \frac{1}{\sigma} e^{-\sigma t}, & \tau \le t \\ \frac{1}{\sigma} e^{-\sigma \tau}, & \tau \ge t \end{cases}$$

$$(J^* J - JJ^*) g = \frac{1}{\sigma} \int_0^\infty e^{-\sigma(t+\sigma)} g(\tau) dr ,$$

(13) va (14) dan quyidagi tengsizlik kelib chiqadi

$$\begin{aligned} &2\sigma \int_0^b \int_0^\infty w^2(\lambda, y, t) dt, dy \le \\ &\le \int_0^\infty e^{-\sigma t} \left[\frac{\lambda^2}{4} (J + J^*) w_\sigma(\cdot) - 4\sigma b w_\sigma(\cdot) \right] w_\sigma(\cdot) dt + \frac{1}{\sigma} \int_0^\infty \psi^2{}_\sigma(\lambda, y) dy \end{aligned} \tag{1.2.15}$$

ω_σ, ψ_σ funksiyalarning obrazlaridan ularning proobrazlariga o’tib,

$$\begin{aligned} &2\sigma \int_0^b \int_0^\infty \int_{-\infty}^\infty e^{-2\sigma t} v_\sigma^2(x, y, t) dx, dy, dt \le \\ &\le \int_0^\infty \int_{-\infty}^\infty e^{-2\sigma t} \left[\frac{1}{4} (J + J^*) \frac{\partial^2}{\partial x^2} v_\sigma(x, b, t) - 4\sigma b v_\sigma(x, b, t) \right] v_\sigma^2(x, b, t) dx, dt + \\ &+ \frac{1}{\sigma} \int_0^\infty \int_{-\infty}^\infty \varphi_\sigma(x, y) dx, dy \end{aligned} \tag{1.2.16}$$

ni hosil qilamiz

(16) ning chap tomonidagi birinchi qo’shiluvchini qaraymiz . u(x,y,t) fazoda y = b tekislik bo’yicha olingan v_σ va $(J - J^*) v_{\sigma xx}^{11}$ funksiyalarni saqlovchi formani integralidir. u funksiyaga qo’yilgan shartlardan va v_σ funksiyaning aniqlanishidan shunday M_0, M_1 o’zgarmaslar mavjud

$$\int_0^\infty \int_{-\infty}^\infty e^{-2\sigma t}\left[\frac{1}{4}(J + J^*)\frac{\partial^2}{\partial x^2} v_\sigma(x,b,t) - 4\sigma b v_\sigma(x,b,t)\right] v_\sigma^2(x,b,t)dx, dt \le (M_0 + M_1\sigma)e^{-2\sigma b^2}. \quad (1.2.17)$$

to’g’ri bo’ladi.

(4), (16), (17) tengsizliklardan

$$(2\sigma - M_2)\int_0^b \int_0^\infty \int_{-\infty}^\infty v_0^2(x,y,t)dx, dy, dt \le (M_0 + M_1\sigma)e^{-2\sigma b^2 q}. \quad (1.2.18)$$

bunda M_2 — biror o’zgarmas . Osongina ko’rish mumkinki, agar u va v_a funksiyalar aynan nolga teng bo’lmasa, u holda shunday q topiladiki $0 < q < 1$ 0 , va

$$\int_0^b \int_0^\infty \int_{-\infty}^\infty v_0^2(x,y,t)dx, dy, dt \ge M_3 e^{-2\sigma b^2 q}. \quad (1.2.19)$$

bo’ladi

(18) va (19) dan quyidagini hosil qilamiz .

$$M_3(2\sigma - M_2)e^{-2\sigma b^2 q} \le (M_0 + M_1\sigma)e^{-2\sigma b^2} \quad (1.2.20)$$

Ko’rinib turibdiki bu o’zgarmaslardan yetarlicha katta qiymatlarida o’rinli emas , bu esa teoremaning o’rinli ekanligi kelib chiqadi.

1.2.1- Teorema isbotlandi.

1.3-§. Siniq chiziqlar oilasi bo’yicha integral geometriya masalasi yechimining yagonalik teoremasi

Keyinchalik foydalanishimiz kerak bo’lgan belgilashlarni kiritamiz.

$$(x,y) \in R^2, \quad (\xi,\eta) \in R^2, \quad \lambda \in R^1$$

$$\Omega = \{(x, y) : x \in R^1, \quad y \in (0, l), \quad l < \infty\}$$

$$\overline{\Omega} = \{(x, y) : x \in R^1, \quad y \in [0, l]\}$$

Masalaning qo'yilishi. $\overline{\Omega}$ polosada ya'ni yo'lakda uchining koordinatalari (x, y) yordamida bir qiymatli parametrlovchi siniq chiziqlar oilasini qaraymiz. Ixtiyoriy siniq chiziqlar oilasi $P(x, y)$ quyidagi munosabatlar bilan aniqlansin.

$$P(x, y) = \{(\xi, \eta) : (x - y) + (\eta - \xi) = 0, \ 0 \le \eta \le y, \ x - y \le \xi \le x\} \cup$$

$$\cup \{(\xi, \eta) : (x + y) - (\xi + \eta) = 0, \ \ 0 \le \eta \le y, \ x \le \xi \le x + y\}$$

Masala. Agar $\overline{\Omega}$ polosadagi barcha (x, y) uchun $u(x, y)$ funksiyaning $P(x, y)$ siniq chiziqlar oilasi bo'yicha

$$\int_{x-y}^{x} g(x - y) u(\xi, y - x) d\xi + \int_{x}^{x+y} g(x - y) u(\xi, x + y - \xi) d\xi = f(x, y) \tag{1.3.1}$$

integrali ma'lum bo'lsa ikki o'zgaruvchili $u(x, y)$ funksiyani topish talab qilinadi. Bu yerda

$$g(x - y) = \begin{cases} 1, & x - \xi > 0 \\ 0, & x - \xi < 0 \end{cases} \tag{1.3.2}$$

Xevisayd funksiyasi. Bu funksiya nol nuqtada uzilishga ega.

$u(x, y)$ funksiya ikkinchi tartibli xususiy hosilasigacha uzluksiz va tashuvchisi bilan R_+^2 finit bo'lgan u funksiyalar sinfidan olingan funksiya.

Tashuvchisi

$$Supp \ \ u \subset D = \{(x, y) : -a < x < a, 0 < a < \infty, 0 < y < l, \quad l < \infty\}$$

Quyidagi funksiyalarni kiritamiz.

$$I(\lambda, p) = \frac{p + i\lambda}{p^2 + \lambda^2} \tag{1.3.3}$$

$$I_1(\lambda, y) = \frac{1}{2\pi i} \int_{a-i\infty}^{a+i\infty} e^{py} \frac{\lambda dp}{p^2 I(\lambda, p)} \tag{1.3.4}$$

$$I_2(x-\xi, y-\eta) = \int_{-\infty}^{+\infty} e^{i\lambda x} \frac{I_1(\lambda, y)}{1+\lambda^2} d\lambda \qquad (1.3.5)$$

Quyidagi teorema o'rinli.

1.3.1- Teorema $f(x,y)$ funksiya $\overline{\Omega}$ polosadan olingan ixtiyoriy (x,y) uchun aniqlangan bo'lsin. U holda (1.3.1) masalaning yechimi u sinfda yagonadir quyidagi ko'rinishga ega:

$$u(x,y) = \int_0^y \int_{-\infty}^{+\infty} I_2(x-\xi, y-\eta) \left(\frac{\partial^2}{\partial \eta^2} - \frac{\partial^2}{\partial \xi^2} \right) f(\xi, \eta) d\xi d\eta \qquad (1.3.6)$$

va quyidagi tengsizlik o'rinli.

$$\|u\|_{L_2(\Omega)} \le C_0 \|f\|_{W_2^2(\Omega)}$$

C_0 -o'zgarmas son

Isbot. Teoremani isbotlashdan oldin $f(x,y)$ funksiyani $y \ge l$ da aniqlaymiz. $y \ge l$ uchun $f(x,y) = 0$ bo'ladi. Bu holda $u(x,y)$ funksiya $y \ge l$ da (1.3.6) formula bo'yicha aniqlanadi. (1.3.1) tenglamani quyidagi almashtirish yordamida yanada qulayroq ko'rinishga keltiramiz.

1-chisidan

$$x - y + \eta - \xi = 0, \quad \eta = y - x + \xi$$

$$\xi = \eta - y + x, \quad d\xi = d\eta$$

2-chisidan

$$y + x - \eta - \xi = 0, \quad \eta = y + x - \xi$$

$$\xi = y + x - \eta, \quad d\xi = -d\eta$$

1- tenglamani η bo'yicha integrallashga o'tsak quyidagi integralga ega bo'lamiz.

$$\int_0^y g(x-h)[u(x-h,\eta) - u(x+h,\eta)] d\eta = f(x,y) \qquad (1.3.7)$$

Bu yerda $h = y - \eta$.

2 -ni (1.3.7) ga qo'yib quyidagiga ega bo'lamiz va uning ikkinchi qismi nolga teng.

$$\int_0^y u(x-h,\eta)d\eta = f(x,y) \tag{1.3.8}$$

(1.3.8) tenglamaning ikkala qismiga x o’zgaruvchi bo’yicha Furye almashtirishini qo’llaymiz.

$$\widehat{f}(\lambda,y) = \int_{-\infty}^{+\infty} e^{i\lambda x} \int_0^y u(x-h,\eta)d\eta dx = \int_0^y e^{i\lambda h}\left(\int_{-\infty}^{+\infty} e^{i(x-h)\lambda} u(x-h,\eta)dx\right)d\eta = \int_0^y e^{i\lambda h}\widehat{u}(\lambda,\eta)d\eta$$

$$\widehat{f}(\lambda,y) = \int_0^y e^{i\lambda h}\widehat{u}(\lambda,\eta)d\eta \tag{1.3.9}$$

$u(x,y)$ funksiyaning finitligiga ko’ra $P(x,y)$ siniq chiziqning uzunligi (1.3.1) integralda nol emas. Yuqoridan tekis chegaralangan bu yerda o’rta qiymat haqidagi teoremaga ko’ra $f(x,y)$ funksiya bo’yicha chegaralangan ya’ni o’sishini nolinchi darajada ekanligiga ega bo’lamiz. Shuning uchun (1.3.1) tenglamaning ikkala qismiga ham va shuning (1.3.9) tenglamaga ham bo’yicha Laplas almashtirishini qo’llash mumkin. (1.3.9) tenglamada ikkita tomoniga ham o’zgaruvchi bo’yicha Laplas almashtirishini qo’llaymiz va Fubini teoremasidan foydalanib quyidagiga ega bo’lamiz.

$$\tilde{\widehat{f}}(\lambda,p) = \int_0^\infty e^{-py}\int_0^y e^{i\lambda h}\widehat{u}(\lambda,h)d\eta dy = \int_0^\infty e^{-py}\int_0^y [\cos\lambda h + i\sin\lambda h]\widehat{u}(\lambda,h)d\eta dy =$$

$$= \int_0^\infty e^{-py}\int_0^y \cos\lambda h\widehat{u}(\lambda,h)d\eta dy + i\int_0^\infty e^{-py}\int_0^y \sin\lambda h\widehat{u}(\lambda,h)d\eta dy =$$

$$h = y-\eta, \quad y = h+\eta, \quad dy = d\eta$$

$$= \int_0^\infty e^{-ph}\widehat{u}(\lambda,h)d\eta\int_0^\infty e^{-ph}\cos\lambda h dh + i\int_0^\infty e^{-ph}\widehat{u}(\lambda,h)d\eta\int_0^\infty \sin\lambda h dh =$$

$$= \tilde{\widehat{u}}(\lambda,p)\int_0^\infty e^{-ph}\cos(\lambda,h)dh + i\tilde{\widehat{u}}(\lambda,p)\int_0^\infty e^{-ph}\sin(\lambda,h)dh =$$

$$\int_0^{\infty} e^{-ph}\cos(\lambda, h)dh = \frac{p}{p^2+\lambda^2}; \quad p>0$$

$$\int_0^{\infty} e^{-ph}\sin(\lambda, h)dh = \frac{\lambda}{p^2+\lambda^2}; \quad p>0$$

ni hisobga olib quyidagi tenglamaga ega bo'lamiz.

$$\tilde{\tilde{u}}(\lambda, p)\frac{p+i\lambda}{p^2+\lambda^2} = \tilde{\tilde{f}}(\lambda, p)$$

(1.3.10) $\tilde{\tilde{u}}(\lambda, p)\frac{p+i\lambda}{p^2+\lambda^2} = \tilde{\tilde{f}}(\lambda, p)$ funksiyaning nollar to'plami tekislikda nol

o'lchovga ega bo'ladi. Tenglamani ikkala qismini mos ravishda $\frac{p^2+\lambda^2}{p+i\lambda}$ ga

ko'paytirish mumkin.

$$\frac{p^2+\lambda^2}{p+i\lambda} = \frac{(p^2+\lambda^2)(p-i\lambda)}{(p+i\lambda)(p-i\lambda)} = \frac{(p^2+\lambda^2)(p-i\lambda)}{(p^2+\lambda^2)} = p-i\lambda$$

Bu yerda

$$\tilde{\tilde{u}}(\lambda, p) = \frac{p^2+\lambda^2}{p+i\lambda}\tilde{\tilde{f}}(\lambda, p) = (p-i\lambda)\tilde{\tilde{f}}(\lambda, p) \qquad (1.3.11)$$

$$\left|\frac{1}{I(\lambda, p)}\right| = |p-i\lambda| = \sqrt{p^2+\lambda^2} \le |p|+|\lambda| \qquad (1.3.12)$$

Bu yerda

$$I(\lambda, p) = \frac{p+i\lambda}{p^2+\lambda^2}$$

$$\tilde{\tilde{u}}(\lambda, p) = \frac{1}{I(\lambda, p)}\tilde{\tilde{f}}(\lambda, p) = \frac{p^2}{p^2 I(\lambda, p)}\tilde{\tilde{f}}(\lambda, p) \qquad (1.3.13)$$

(1.3.13) tenglamaga p o'zgaruvchi bo'yicha Laplasning teskari almashtirishini qo'llaymiz.

$$\hat{u}(\lambda,y)=\int_0^\infty e^{py}\frac{p^2}{p^2 I(\lambda,p)}\tilde{\hat{f}}(\lambda,p)dp=\int_0^\infty\frac{\partial^2\hat{f}(\lambda,y)}{\partial\eta^2}I_1(\lambda,y)d\eta \qquad (1.3.14)$$

yoki (1.3.14) ni ikkala tomoni λ ga ko'paytirib yozsak,quyidagi hosil bo'ladi.

$$\lambda\hat{u}(\lambda,y)=\int_0^\infty\frac{\partial^2\hat{f}(\lambda,y)}{\partial\eta^2}I_1(\lambda,y)\lambda d\eta$$

Bu tenglikning o'ng tomonini $(1+\lambda^2)$ ga ko'paytirib bo'lamiz.

$$\lambda\hat{u}(\lambda,y)=\int_0^\infty(1+\lambda^2)\frac{\partial^2\hat{f}(\lambda,y)}{\partial\eta^2}\frac{\lambda I_1(\lambda,y)}{(1+\lambda^2)}d\eta$$

(1.3.14) tenglamaga λ o'zgaruvchi bo'yicha teskari Furye almashtirishini qo'llaymiz.

Svertkalar haqidagi teoremadan va Furye almashtirishining differensiallash xossasidan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz.

$$u(x,y)=\int_{-\infty}^\infty e^{i\lambda x}\int_0^\infty(1+\lambda^2)\frac{\partial^2\hat{f}(\lambda,y)}{\partial\eta^2}\frac{\lambda I_1(\lambda,y)}{(1+\lambda^2)}d\eta dx=$$

$$=\int_0^\infty\int_{-\infty}^\infty I_2(x-\xi,y-\eta)\left(\frac{\partial^2}{\partial\eta^2}-\frac{\partial^2}{\partial\xi^2}\right)f(\xi,\eta)d\xi d\eta \qquad (1.3.15)$$

(1.3.15) formulada y o'zgaruvchi bo'yicha lokal xarakterga ega: $Supp\,u\in\Omega$ shartni hisobga olib (1.3.15),(1.3.1) tenglamani $l<\infty$ dagi yechimi bo'ladi.

U holda (1.3.11),(1.3.12) va (1.3.15) dan berilgan masalaning yechimi $C_0^2(\Omega)$ sinfda yagonaligi kelib chiqadi.

(1.3.11) tenglamadan (1.3.12) ni hisobga olib quyidagi tengsizlikni osongina olish mumkin.

$$\left|\tilde{\hat{u}}(\lambda,p)\right|\le\left(|p|+|\lambda|\right)\left|\tilde{\hat{f}}(\lambda,p)\right|$$

Bundan quyidagi baho kelib chiqadi.

$$\int_{-\infty}^\infty\int_{a-i\infty}^{a+i\infty}\left|\tilde{\hat{u}}(\lambda,p)\right|^2dpd\lambda\le\int_{-\infty}^\infty\int_{a-i\infty}^{a+i\infty}\left(|p|+|\lambda|\right)^2\left|\tilde{\hat{f}}(\lambda,p)\right|^2dpd\lambda \qquad (1.3.16)$$

Laplas va Furye almashtirishlarini differensiallash xossasidan foydalanib norma uchun uchburchak tengsizligidan va shuningdek (1.3.15) va (1.3.16) ni hisobga olib u funksiyaga qo'yilgan shartlardan quyidagi bahoga ega bo'lamiz.

$$\left\| u(x,y) \right\|_{L_2(\Omega)} \leq C_0 \left\| f(x,y) \right\|_{W_2^2(\Omega)}$$

Bu yerda C_0 -o'zgarmas.

Bu baho (1.3.1) masala yechimining yagonaligidan kelib chiqadi.

1.3.1- Teorema isbotlandi.

1.4-§. Siniq chiziqlar oilasi bo'yicha integral geometriya masalasi yechimining mavjudlik teoremasi

(1.3.1) integral geometriya masalasining yechimi mavjudligi haqidagi savolga javobni quyidagi teorema beradi.

1.4.1- Teorema. (1.3.1) tenglamaning o'ng tomoni quyidagi shartlarni qanoatlantirsin

1) $f(x,y)$ o'zgaruvchi x bo'yicha finit

2) $f(x,y)$ ikkinchi tartibgacha barcha uzluksiz xususiy hosilalarga ega

3) $\dfrac{\partial^m}{\partial y^m} f(x,y)|_{y=0} = \dfrac{\partial^m}{\partial y^m} f(x,y)|_{y=l} = 0 \qquad (m = 0,1,2)$

u holda (1.3.1) tenglamaning yechimi (1.3.6) formula bilan aniqlangan x argument bo'yicha finit uzluksiz funksiyalar sinfida mavjuddir.

Isbot. $I_2(x,y)$ funksiyaga va $u(x,y)$ funksiyaga qo'yilgan shartlardan (1.3.6) tenglamaning ikkala qismiga ham x o'zgaruvchi bo'yicha Furye almashtirishini qo'llash mumkin ekanligi kelib chiqadi.

Svertkalar haqidagi teorema va Furye almashtirishining xossalaridan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz.

$$i\lambda\widehat{u}(\lambda,y)=\int_0^y\left\{\int_{-\infty}^{+\infty}e^{i\lambda x}\left[\int_{-\infty}^{+\infty}I_2(x-\xi,y-\eta)\left(\frac{\partial^2}{\partial\eta^2}-\frac{\partial^2}{\partial\xi^2}\right)f(\xi,\eta)d\xi\right]dx\right\}d\eta=$$

$$=\int_0^y\left\{\int_{-\infty}^{+\infty}e^{-\lambda\xi}\left(\frac{\partial^2}{\partial\eta^2}-\frac{\partial^2}{\partial\xi^2}\right)f(\xi,\eta)d\xi\int_{-\infty}^{+\infty}e^{i\lambda(x-\xi)}I_2(x-\xi,y-\eta)dx\right\}d\eta=$$

$$=\int_0^y(1+\lambda^2)\frac{\partial^2}{\partial\eta^2}\widehat{f}(\lambda,\eta)\widehat{I}_2(\lambda,y-\eta)d\eta$$

Bu yerda $\widehat{I}_2(\lambda,y-\eta)$ funksiya $I_2(x-\xi,y-\eta)$ funksiyadan birinchi o'zgaruvchi bo'yicha olingan Furye almashtirishidir.

$I_2(x,y)$ funksiya uchun (1.3.5) munosabatdan quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\widehat{u}(\lambda,y)=\int_0^y\frac{\partial^2}{\partial\eta^2}\widehat{f}(\lambda,\eta)I_1(\lambda,y-\eta)d\eta \qquad (1.4.1)$$

(1.3.5) formuladan va $u(x,y)$, $f(x,y)$ funksiyalarga qo'yilgan shartlardan (1.4.1) ning ikkala qismiga y o'zgaruvchi bo'yicha Laplas almashtirishini qo'llash mumkinligi kelib chiqadi.

Ko'paytmalar haqidagi teorema va originalni differensiallash xossasidan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz:

$$\tilde{\widehat{u}}(\lambda,p)=\int_0^{+\infty}e^{-py}\int_0^y\frac{\partial^2}{\partial\eta^2}\widehat{f}(\lambda,\eta)I_1(\lambda,y-\eta)d\eta dy=$$

$$=\int_0^{+\infty}e^{-py}\widehat{f}(\lambda,\eta)d\eta\int_0^{+\infty}e^{-ph}I_1(\lambda,h)dh=p^2\tilde{\widehat{f}}(\lambda,p)\int_0^{+\infty}e^{-ph}I_1(\lambda,h)dh$$

Bu yerda

$$\tilde{\hat{u}}(\lambda, p) = \int_0^{+\infty} e^{-ph} \hat{u}(\lambda, y) dy$$

$$\tilde{\hat{f}}(\lambda, p) = \int_0^{+\infty} e^{-ph} \hat{f}(\lambda, y) dy$$

(1.3.3) formula bilan aniqlangan $I(\lambda, p)$ funksiya barcha

$$\{(\lambda, p) : \lambda \in R^1, \ p \geq 0\}$$

larda o'rinli.

Oxirgi tenglik va (1.3.3) (1.3.4) lardan quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\tilde{\hat{u}}(\lambda, p) = \tilde{\hat{f}}(\lambda, p) \frac{1}{I(\lambda, p)} \tag{1.3.2}$$

1.3.1-teoremaning isbotida biz $\frac{1}{p^2 I(\lambda, p)}$ funksiyani $p \geq 0$ yarim tekislikda $p \to \infty$ da nolga intilishini va

$$\int^{+\infty} e^{-ph} \frac{dp}{p^2 I(\lambda, p)}$$

integral absolyut yaqinlashuvchi ekanligini ko'rsatgan edik.

Demak,

$$\frac{1}{p^2 I(\lambda, p)}$$

funksiyada Laplasning teskari almashtirishini qo'llash mumkin. Bundan (1.3.2) tenglama Laplasning teskari almashtirishini qo'llash mumkinligi kelib chiqadi. (1.3.2) tenglamani quyidagi ko'rinishda yozish mumkin.

$$\tilde{\hat{u}}(\lambda,p)\frac{p+i\lambda}{p^2+\lambda^2}=\tilde{\hat{f}}(\lambda,p) \qquad (1.3.3)$$

(1.4.3) tenglamaning ikkala tomoniga ham p o'zgaruvchi bo'yicha Laplasning teskari almashtirishini qo'llaymiz. Svertkalar haqidagi teoremadan foydalanib quyidagiga ega bo'lamiz.

$$\hat{f}(\lambda,y)=\int_0^y e^{i\lambda h}\hat{u}(\lambda,\eta)d\eta \qquad (1.4.4)$$

Bu yerda $h=y-\eta$ ga teng.

Nihoyat (1.4.4) tenglamaning ikkala tomoniga ham λ o'zgaruvchi bo'yicha Furyening teskari almashtirishini qo'llaymiz. Svertkalar haqidagi teoremadan

$$\int_{-\infty}^{+\infty}e^{-i\lambda x}\int_0^y e^{i\lambda h}\hat{u}(\lambda,\eta)d\eta dx=\int_0^y e^{i\lambda h}\left\{\int_{-\infty}^{+\infty}e^{-i\lambda(x-h)}u(x-h,\eta)dx\right\}d\eta=f(x,y)$$

shuningdek (1.4.4) ni quyidagi ko'rinishda yozamiz.

$$\int_{x-y}^{x}g(x-\xi)u(\xi,y+\xi-x)d\xi+\int_x^{x+y}g(x-\xi)u(\xi,x+y-\xi)d\xi=f(x,y)$$

Bu yerdan 1.4.1-teorema tasdig'ining to'g'riligi kelib chiqadi.

1.5-§. Siniq chiziqlar oilasi bo'yicha qo'zg'alishli integral geometriya masalasi

Qo'zg'alishli integral geometriya masalasini o'rganamiz. $S(x,y)$ orqali R_+^2 dagi $P(x,y)$ siniq chiziq va $y=0$ o'q bilan chegaralangan qismini belgilaymiz.

1.5.1- Masala. Agar barcha $x,y\in\overline{\Omega}$ lar uchun $u(x,y)$ funksiyaning $P(x,y)$ siniq chiziq bo'yicha va $K(x,y;\xi,\eta)$ vazn funksiyali $S(x,y)$ yuza bo'yicha

$$\int_0^y u(x-h,\eta)d\eta+\int_0^y\int_{x-h}^{x+h}K(x,y;\xi,\eta)d\xi d\eta=F(x,y) \qquad (1.5.1)$$

integrallari ma'lum bo'lsa $u(x,y)$ ni aniqlang. Bu yerda $h = y - \eta$.

$K(x,y;\xi,\eta)$ funksiya ($P(x,y)$ siniq chiziqda) finit va ikkinchi tartibgacha barcha uzluksiz xususiy hosilalarga ega. O'zining xususiy hosilalari bilan birgalikda $P(x,y)$ siniq chiziqda nolga aylanadi.

$$P(x,y) = \{(\xi,\eta) : (x - y) + (\eta - \xi) = 0,\ 0 \le \eta \le y,\ x - y \le \xi \le x\} \cup$$

